O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
“Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati” kafedrasi dotsenti,
p.f.b.f.d. (PhD) Qurbonov Xurshid Xolliyevichga

T A V S I F N O M A

Qurbonov Xurshid Xolliyevich 1994-yil 1-iyunda Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanida tibbiyot hodimlari oilasida tavallud topgan. U 2016-yil O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutining Kasb ta’limi “Sport faoliyati” ta’lim yo‘nalishini (bakalavr), 2018-yilda O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti magistraturasini “Sport faoliyati” mutaxassisligi bo‘yicha tamomlagan.

X.Qurbonov 2018-yil 3-sentabrdan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining “Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati” kafedrasi o‘qituvchisi, 2023-yil yanvardan, shu kafedra katta o‘qituvchisi, 2024-yil 4-sentabrdan kafedra v.b. dotsenti, 2025-yil 12-noyabrdan kafedra dotsenti lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.

X.Qurbonov o‘z faoliyati davomida ilmiy-pedagogik va tashkilotchilik qobiliyatini namoyon etdi. Kafedrada o‘qitiladigan fanlarga oid o‘quv-me’yoriy hujjatlarni bugungi kun zamon talablariga moslashtirib, qayta ishlash, mashg‘ulotlarni ilmiy asosda tashkil qilish va o‘tkazish masalalarini yechishda faol tashabbus ko‘rsatib kelmoqda. U universitet miqyosida o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot hamda ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishidagi topshiriq va vazifalarni samarali hal etishda faol ishtirok etib, 2023-yil universitet professor-o‘qituvchilari orasida eng faol va eng na’munali “Yil o‘qituvchisi” sifatida e’tirof etildi. 2024/2025-yillar mobaynida Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi sifatida samarali faoliyat yuritdi.

X.Qurbonov o‘z faoliyati davomida 100 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar nashr qilgan bo‘lib, sohaga doir o‘tkazilib kelinayotgan respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Shuningdek, yakka mualliflikda 2 ta o‘quv qo‘llanma, hammualliflikda 1 ta darslik va 1 ta o‘quv qo‘llanmalari, 2 ta monografiya hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 30 ga yaqin maqolalari chop etilgan.

X.Qurbonov tomonidan tayyorlanagan “O‘rta masofaga yuguruvchilarning sport formasini bosqichli takomillashtirish orqali musobaqa davrida barqarorlashtirish bo‘yicha variativ dasturi” va “Ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida o‘rta masofalarga yuguruvchilarning sport formasini takomillashtirish metadologiyasi” nomli mashg‘ulot dasturlari o‘rta masofalarga yuguruvchi yengil atletikachilar tayyorgarligida samarali qo‘llanilib kelinmoqda.

Qurbonov Xurshid Xolliyevich o‘z ishiga mas’uliyatli, talabchan, mehnatsevar, respublikamizda “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati”, “Sport mashg‘ulotlarining nazariy asoslari” hamda “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” fanlarini rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan fidoiy mutaxassis sifatida universitet jamoasi o‘rtasida alohida hurmatga sazovor.

Oilali, 2 nafar farzandning otasi.

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori p.f.d. (DSc), dotsent **Sh.Sh.Gaziyev**